

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.A.Abduraxmonov</b>	
Adabiy asardagi nuring xususiyatlari va funksiyalari (O'zbek lirikasi namunda).....	460
<b>A.B.Kosimova</b>	
O'zbek adabiyotida hikoya va drabbilar.....	469
<b>TILSHUNOSLIK</b>	
<b>M.Y.Mamajonov</b>	
Muloqotni boshqarishda lisoniy va nolisoniy vositalarning o'rni .....	473
<b>R.M.Shukurov, G.S.Jo'rabyeva</b>	
Farg'ona viloyati toponomilarining sotsiolingvistik xususiyatlari.....	477
<b>Z.V.Alimova</b>	
Navoiyning "Saddi iskandariy" dostonidagi "Haroson" so'zi va uning morfologik belgilari xususida .....	483
<b>F.X.Qosimova</b>	
O'zbek tilshunosligida tibbiy terminologiya bo'yicha tadqiqotlar: sifat va miqdor tahlili.....	488
<b>A.A.Ergashev</b>	
Etnotoponimlar tadqiqi .....	496
<b>H.Sh.Radjabova</b>	
Terminologik lug'atlar tadqiqiga doir.....	502
<b>S.A.Jabborova</b>	
Morphological and syntactic analysis of the structure of medical terminology in the English and Uzbek languages.....	507
<b>Sh.R.Amonturdiyeva</b>	
Diniy uslub shakllanishining antropotsentrik va kognitiv asoslari .....	511
<b>D.I.Mirzayeva</b>	
Tillardagi turg'un o'xshatishlarning umumlingvistik statusi.....	517
<b>X.F.Xaydarova</b>	
Taqlid so'zlarning statistik tahlili (O'zbek tilining ikki va besh jildli izohli lug'atlari misolida).....	520
<b>M.A.Hojiyeva</b>	
Filolog mutaxassislarda terminologik kompetentlikni rivojlantirishning ahamiyati.....	524
<b>I.A.Egamberdiyeva</b>	
Metafora - til, madaniyat va ma'naviyat ko'zgusi .....	527
<b>D.I.Mirzayeva, X.R.Mirzayeva</b>	
O'zbek va Ingliz tillaridagi frazeologik birliklarda o'Ichov so'zlarning qo'llanilishi.....	531
<b>Z.Sh.Ashurova</b>	
Badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlari va muallif individual uslubi talqini .....	535
<b>I.T.Hojaliyev, G.S.A'zamova</b>	
Adekvatlik va uni ta'minlovchi nolisoniy va lisoniy omillar.....	539
<b>Z.M.Sobirova</b>	
Til va ong munosabati L.S.Vigotskiy psixologik talqinida .....	545
<b>V.A.Vositov</b>	
So'z o'zlashtirish tillararo aloqani yuzaga keltiruvchi sotsiolingvistik omil sifatida .....	550
<b>M.T.Abdupattoyev, X.P.Shodmonov</b>	
Konvergensiya va uning sintaktik-stilistik funksiyasi .....	557
<b>D.I.Khodjaeva</b>	
Lingvodidaktika va metodika terminlari tavsifi, farqli jihatlari .....	562
<b>O.M.Yusupova</b>	
Ingliz va O'zbek maishiy ertaklaridagi asosiy tushunchalarni ifodalovchi leksemalarning semantik tahlili .....	567
<b>M.V.Nasridinov</b>	
"Maqsad" konsepti maydonida yotuvchi ingliz tilidagi morfemalarning qiyosiy tadqiqi.....	572
<b>M.O.Batirkhanova</b>	
Lexicographic analysis of somatisms in different languages .....	577
<b>M.U.Mamadjanova</b>	
Interpretation of epithetic compounds in linguistics .....	582
<b>M.V.Nasridinov</b>	
Ingliz va O'zbek tillarida "Maqsad" konseptining morfologik struktural, semantik tahlili .....	586
<b>M.Y.Madiyeva</b>	



**BADIY MATNNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI VA MUALLIF INDIVIDUAL USLUBI TALQINI**

**ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА И ТРАКТОВКА АВТОРСКОГО ИНДИВИДУАЛЬНОГО СТИЛЯ**

**LINGUISTIC AND POETIC FEATURES OF A LITERARY TEXT AND INTERPRETATION OF THE AUTHOR'S INDIVIDUAL STYLE**

Ashurova Zulkumor Shodiyevna 

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dots. v.b

*Annotatsiya*

*Ushbu maqolada badiy matnning lingvopoetik xususiyatlari, muallif individual uslubi, o'ziga xos qirralari, shuningdek, matn tarkibida aks ettirilgan g'oyaviy-tematik maydon, dominant belgilari jamuljami xususida so'z yuritiladi.*

*Аннотация*

В данной статье рассматриваются лингвопоэтические особенности художественного текста, авторский индивидуальный стиль, специфические грани, а также идеально-тематическое поле, доминирующие признаки, отраженные в структуре текста.

*Abstract*

*This article examines the linguistic and poetic features of a literary text, the author's individual style, specific facets, as well as the ideological and thematic field, the dominant features reflected in the structure of the text.*

**Kalit so'zlar:** so'z, matn, metafora, metonimiya, sinekdoxa, kompozitsiya, leksema, sema, ibora, emotsiya, tuyg'u, kechinma, uslub, poetika.

**Ключевые слова:** слова, текст, метафора, метонимия, синекдоха, композиция, лексема, сема, фраза, эмоция, стиль, поэтика

**Key words:** word, text, metaphor, metonymy, synecdoche, composition, lexeme, sema, phrase, emotion, style, poetics

**KIRISH**

Ma'lumki, lingvopoetika – tilshunoslikda badiy matnda aks ettirilgan til birliklari va ularning vazifaviy ahamiyatini, g'oyaviy va badiy mazmunini aniqlashda, falsafiy-estetik jozibadorlikni chandalashda, qiyosiy-tipologik aspektida muhim o'rin tutadigan sohalardan biri sanaladi. Negaki, matn makro va mikro maydonda jilvalangan voqelikni yuzaga chiqarishda asosiy komponent sanaladi. Jumladan, she'riy parchadagi metafora, metonimiya, sinekdoxa, frazeologiya singari til birliklarini o'rganuvchi jamiki unsurlar badiy matndagi muallif oldiga qo'ygan maqsad, vazifa, g'oya mutanosibligini namoyish qilishga qaratilgan bo'ladi. Har qanday matn tirik organizm kabitdir. Unda aks ettirilgan muallif dunyoqarashi sistem butunlik kasb etib, ma'lum ijtimoiy-ma'rifiy masalalarни aniqlashga yo'naltiriladi.

**MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI**

Keyingi yillar bolalar she'riyatida rang-barang tasviriy ifoda unsurlari, metforik birliklar tarannumi o'ziga xos tarzda namoyon bo'layotgani hech kimga sir emas. Jahoniy kontekstda so'z yuritishga intilgan shoirki bor, buning uddasidan chiqishga bajonidil harakat qilishmoqda. Uning mohiyatida bo'lsa bitta jihat – barkamol shaxsni tarbiyalashdek oljanob tuyg'ular, maqsadlar turganin e'tibordan soqit qilib bo'lmaydi, albatta!

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ishda mavzu talabidan kelib chiqqan holda, qiyosiy-tarixiy, tavsifiy va tasniflash metodlaridan foydalaniladi. Uning obyektini zamonaviy ilmiy manbalar va bolalar she'riyati materiallari tashkil etadi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

"Baddiy matnning startifikatsiya hodisasi deganda, avvalo, badiiy bo'yoqdorlik, grammatik tuzilish, tagma'no va tagqatlamlarning stilistik xususiyatlari yagona markazda jipslashuvi, dominant birliklar"<sup>[1.b-3]</sup> ning o'zaro aloqasi tushuniladi. Istiqlol davrida barakali ijod qilgan A.Obidjon, O.Damin, D.Rajab poetik mahoratida so'z birliklarini o'z o'rnda, vaziyatida qo'llay olganligini e'tirof etish joizdir. Lingvopoetika tilshunoslikda badiiy matnni o'rganishning uchinchi darajasi deya e'tirof qilinadi.<sup>[2.b-2]</sup> Darhaqiqat, semantik darajalarni tahlil qilish orqali lingvopoetik unsurlar dinamikasini aniqlashga keng yo'l ochish mumkin. Jumladan, shoir nima haqida yozayotganda – kimni nazarda tutishiga qarab anglash maqsadga muvofiqli. **Bolalar haqidagi she'rlarning aksariyatida nima haqidagi tasavvurlar – kim haqidagi xabarlarni bilishga keng yo'l ochganligi bilan e'tiborga joizdir:**

O'rmon bilan adirning  
O'rtasi dala.  
Hammom qurdi shu joyga  
Fil kuzak palla.  
Suv isitish bo'yicha  
Timsoh bo'ldi bosh.  
Oq mushukxon pattachi,  
Qora it farosh. [3.b-132]

Mazkur she'rdagi jonzotlarning o'xshatilishi, piching va kinoya, yengil yumorni yuzaga kelishiga zamin yaratgan. Buni o'qigan bola tasavvurida qo'lidan kelmaydigan ishga aralashish mudhish xatolarni keltirib chiqaradi degan tasavvur zohir bo'ladi. Natijada, bolalar dunyoqarashi tiniqlashuviga, ulardagi bilim va kuch toplash zahirasining ranginlashuviga, hayotiy xulosalar chiqarishga, aql bilan ish tutishlariga sabab bo'ladi. A.Obidjon she'rlarida ko'p hollarda mittivoylarning dunyoqarashini o'stirishga qaratilgan eng muhim jihatlar, ya'ni voqelikni ich-ichidan o'tkazib tasvirlash, narsa-buyum, predmetlarning tag ma'nosida inson shaxsi turishi, kattalarga hurmat belgisi eng oliy qadriyat sanalishiga da'vat qilinadi.

Lingvostalistika – tadqiq obyektiga jami komponentlarni yagona markazda uyushtirish kafolatini ta'minlaydi. Matnning dastlabki bahosini berishda she'riy va nasriy asarlarning mavzu ko'lami, yaratilish tarixi, mental xususiyatlari ham muhim atribut vazifasini o'taydi. Natijada, so'zda jilvalangan ma'noviy qatlam tabiatan jonli va obrazli tarzda yuzaga chiqishga imkon yaratadi:

Quv ilonni belimga  
Bog'lab qilsam belbog'cha.  
Timsohning terisidan  
Bo'lsa issiq qalpoqcha.

Oq ayiq terisidan  
Kiysam momiq qalpoqcha.  
Yulib sherning yoldidan  
Qilsam junli paypoqcha. [4.b-69]

Ushbu parcha D.Rajabning "Baxshi bola – yaxshi bola" she'riy guldastasidan olindi. Endilikda she'rga bo'lgan munosabat ham o'zgardi. Uning mohiyatida jilvalangan ma'noviy qatlamning kengayishi bola tasavvurni bir muncha o'sishiga olib keldi. Fan-teknika inqilobi natijasida bolalar ilg'or texnologik buyumlardan unumli foydalanish yo'liga o'tdi. Chunonchi, vaqt oqar suvdek o'tib boryotgan bir paytda ham she'r orqali, ham rang-tasvir orqali, ham texnologik predmetlar bilan uyg'un ravishda atrof-javonib to'g'risidagi mulohazaga chorlovchi bitiklarning o'zi kamlik qiladi. Bu xususiyat istiqlol davri bolalar she'riyatida so'z va so'zning ma'noviy qatlamida aks ettirilgan maqsadning hosil bo'lishiga ham turtki bo'ladi. Biz O.Damin va A.Obdijon, D.Rajab singari shoirlar ijodidagi uslubiy dominant belgilarning bir-birini to'ldiruvchi komponent ekanligini aniqlashga erishdik.

## TILSHUNOSLIK

Matnshunos olima G.Jumanazarova alohida ta'kidlaganidek: "Tilining stilistik qatlamlaridagi so'zlarni nutq obyektiga, muayyan voqealardan epik qahramonning sub'ektiv emotsional munosabati nuqtai nazaridan ikki guruhga ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi: ijobiy va salbiy munosabatni anglatuvchi leksik birliklar. Har ikkala guruhdagi so'zlar nominativ (atash) vazifasidan tashqari o'zları ifodalayotgan tushunchaga nisbatan epik qahramonning sub'ektiv bahosini ham yorqin ko'rsatishga xizmat qiladi. Ularning bu xususiyati emotsional-ekspressiv bo'yoqdorlik jihatidan mutloqo neytral bo'lgan so'zlarga qiyoslangandagina yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu yerdagi bir lisoniy jihatni – emotsional-ekspressiv bo'yoqdorlik hosil qiluvchi eng muhim vositani hisobga olish zarur".[5.b-151.] Binobarin, leksik-semantik birliklar she'riy matn tarkibida juda muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, shoir anglatayotgan ma'noviy qatlam ranginligi o'ziga xos tarzda bo'yoqdorlikka keng yo'l ochadi.

Badiiy matn lingvopoetikasida uslubiy o'ziga xoslikni ta'minlashga xizmat qiluvchi eng muhim qirralardan biri o'xshatishlarning o'rni beqiyos. Chunonchi, o'xshatilayotgan matndagi voqelik, narsa-hodisalar bola tasavvurini yanada o'tkirlashuviga, ziyakligiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

M.Yo'ldoshev ta'kidalshicha: "xususiy-muallif o'xshatishlarini badiiy matnni shunchaki, bezovchi, go'zallashtiruvchi vosita sifatidagina qarash to'g'ri bo'lmaydi. Mahoratli ijodkor bunday o'xshatishlarga badiiy-estetik ehtiyoj zaruriyati bilan murojaat qiladi. Tasavvur qilish qiyin bo'lgan tushunchalarni konkretlashtirish, mavhum tushunchalarni aniqlashtirish, narsa-hodisa, harakat-holatlarning eng nozik jihatlarini kitobxon ko'zi o'ngida gavdalantirish, tasvirni quruq emas, balki quyuq bo'yoqlar bilan amalgalashuviga oshirishda ana shunday o'xshatishlar favqulodda muhim vositadir". Demak, shoir kutilmagan vaziyat, sharoit, nuqtai nazar taqozosini bilan ham **o'xshatishlarga moyil bo'lishi** tayin. O'xshatishlarning mazkur xili A.Obidjon ijodida juda ko'plab uchraydi. Bir qarashda *olma, tulki, bo'ri, sichqon, ayiq, qoplon, tog'a, amaki, chol, qarg'a* singari nomlardan o'xshatishlarni she'riy tizmalarga shu qadar sodda, tushunarli va kinoyaviy shaklda joylay olganki, uning mohiyatida – qo'lingdan kelmagan ishga aralashma, degan ma'noviy qatlam anglashiladi:

Ayiq bo'lsam

Bo'rim bo'l.

O'choq bo'lsam,

Mo'rim bo'l.

Mazkur she'rdagi so'zning markaziy o'zagi – bola. U o'zini ayiqqa, o'choqqa o'xshatmoqda. Ayiq va bo'ri obrazi ham o'ziga xos tarzda jilvalanadi. O'choq va mo'ri shaklida esa buyum ma'nosida qo'llaniladi. She'riy matnlarda o'xshatishlarning bolalarni hayratga solishi eng birlamchi maqsad sifatida namoyish qilinadi.

Topgan – topaloq,

Boshi yapaloq.

Boyqushga o'xhab

Ko'zi shapaloq.

Avvalo, "originallik, obrazlilik va ekspressivlik hamisha ustunlik qiladi. Lekin, bunday o'xshatishlar o'zining jozibadorligi, yorqinligi, ta'sirchanligi va kutilmagan (favqulodda) dalolati bilan har qanday o'quvchini hayratgan soladi". Shuni alohida qayd etish joizki, A.Obidjon ko'p hollarda – o'xshatishlarning favqulodda, kutilmagan shakliga murojaat qiladi. U his va tuyg'u natijasida go'zal bir tarzda yuzaga chiqishi lozim. Chunki bola – qiziquvchanligi, ta'sirchanligi bilan hayot va olam haqida tasavvur qilishga moyil bo'ladi. Bu jihat she'riy matn poetik tadrijida an'anaviylikdan ko'ra, favqulodda ta'sir maydoniga evrilishi sinalgan hodisadir.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman, poetik matn tarkibida o'xshatishlar jozibadorlik kasb etib, she'rdagi anglatish va anglash xususiyatiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, bolalarning dunyoqarashini shakllantirish, oq va qoraning farqini ajratish, ularda har bir jarayonga o'z shaxsiy munosabatini uyg'otishga jiddiy tayyorlash, mustaqil fikrlash malakasini namoyon qilishga zamin yaratadi. A.Obidjonning "Polosonlik polaponlar" she'riy manzumasi bir-biridan favqulodda farq qiluvchi, turli xil masalalarga munosabat bildirishga o'rgatuvchi o'ziga xos asarlardan biri ekanligi sir emas. Unda zamon va makon masalasida – bola qalbidagi nozik sezimlarga turtki berish ishorasi orginallik bag'ishlay olganligida qabarib ko'rindi. Shuningdek, alohida ta'kidlaydigan jihatlardan biri shundaki, tahlilda ijodiga murojaat etilgan shoirlar yaratgan obrazlar ham o'ziga xoslik kasb etgani kuzatiladi.

Chunonchi, Anvar Obidjon she'rlarida *fil, timsoh, oq mushukxon, qora it, olma, tulki, bo'ri, sichqon, ayiq, qoplon, tog'a, amaki, chol, qarg'a* obrazlariga murojaat etish orqali bolalarga tanish manzaralarni gavdalantirishga harakat qilinadi. Dilshod Rajab she'rlarida *do'ppi, koptok, ilon, timsoh, oq ayiq, sher* timsollari tiga olinib, bola tasavuri bilan bog'liq badiiy talqinlar ifodalanadi. Bu holat o'zbek bolalar she'riyati, uning o'ziga xos jihatlari, obrazlar olami haqida keng ko'lamli tadqiqotlar yaratish lozimligidan dalolat beradi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Шмуль И.А. Лингвопоэтическая стратификация художественных текстов и изучение индивидуального авторского стиля: На материале произведений Шекспира. кандидат филол.наук. диссертации автореферата. –М. 2001. –С. 3
2. Киртаева А.В. Лингвопоэтика многокомпонентных атрибутивных словосочетаний в английской драме XVI-XVII веков. . кандидат филол.наук. диссертации автореферата. –М. 2001. –С. 2.
3. Анвар Обиджон. Кичкинтойлар кувончи. –Т., "Ўзбекистон". 2019. –Б. 132.
4. Дилшод Ражаб. Бахши бола – яхши бола. –Т.: "Ўқитувчи". 2016. –Б. 69.
5. Жуманазарова Г. Фозил Йўлдош ўғли достонлари тилининг лингвопоэтикаси. –Т., А.Навоий номидаги Миллий кутубхона. –Б.151.
6. Йўлдошев М.Чўлпон сўзининг сирлари. – Т.: Маънавият, 2002. – 60 б.